



Feruz Rajabov Umarqulovich

Qarshi MII akademik litseyi

katta o'qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIK OMONIMLARINING TARKIBIY TUZILISHI

Annotatsiya. *Bu maqolada o'zbek tilida frazeologik birliklarning o'rganilishi va omonim iboralarining tasnifi, talqini tilshunoslikka xos manbalarga tayangan holda asoslanib, tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *frazeologiya, frazeologik omonimlar, morfologik tarkibi, frazeologik birikma, omonimlik.*

Til, nutq va madaniyatning boyib borishi frazeologik birikmalarning ko'payishiga olib keladi. Ma'no anglatish va qo'llanish jihatidan turlicha xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi¹. Manbalarda qayd etilishicha, frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda birinchi marta ingliz adabiyotshunos olimi *Neandr* tomonidan qo'llangan. *Neandr* badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida shu atamani ishlatishga majbur bo'lgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, *frazeologiya* dastlab adabiyotshunoslik sohasida qo'llangan.

Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llanadi. Ular qo'llanish me'yorlari va usullari bilan farqlanadi va ularning ma'nolari muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Umuman olganda, frazeologiya keyingi yillarda tez sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu soha juda ko'plab olimlarining diqqatini o'ziga jalb etmoqda.

Jahon tilshunosligida frazeologiya sohasida N.N.Amosova, A.V.Kuninlarning ingliz frazeologiyasi, I.I.Chernisheva, A.D.Rayxshteyn, M.D.Gorodnikovalarning nemis frazeologiyasi, V.G.Gakk, N.N.Kirillova, Z.N.Levit, A.G.Nazaryan, Y.I.Retsker, G.G.Sokolova, I.N.Timeskovalarning fransuz frazeologiyasi, Y.M.Volf, V.S.Vinogradov, A.V.Suprun, N.N.Kurchatkinlarning ispan frazeologiyasi, T.Z.Cherdansevaning italyan frazeologiyasi bo'yicha amalga oshirgan ishlarini ta'kidlash o'rinlidir².

Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari, hech shubhasiz, S.K.Kenesboyev va Sh.U.Rahmatullayevlar hisoblanadi. Keyingi davrda S.N.Muratovning "Turkiy

¹ А.В.Кунин. Английская фразеология. М., 1970. - с. 128.

² Yo'ldoshev B. "O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi va funksional-pragmatik xususiyatlari". Ma'ruzlar matni, - Samarqan, 2012. -B. 4



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

tillarda turg'un so'z birikmalari" nomli monografiyasi, Sh.U.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ayrim masalalari", G.A.Bayramovning "Ozarbayjon tili frazeologiyasining asoslari", G.X.Axunzyanovning "Idiomalar" (tatar tili materiallari asosida tadqiqot), Z.G.Uraksinning "Boshqird tili frazeologiyasi", M.F.Chernovning "Hozirgi zamon chuvash tili frazeologiyasi", N.SH.Shammayevaning "Ingliz va turkman tillaridagi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyalari, bir qancha monografiyalar, nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar yaratilgan. Sh.Rahmatullayevning "Nutqimiz ko'rki" nomli risolasi asosan frazemaning unga yondosh hodisalardan farqli hamda o'xshash tomonlarini ilmiy jihatdan ochib berishga qaratilgan³.

60-80-yillarda o'zbek frazeologiyasini yana bir boshqa yo'nalishda o'rganish sohasida salmoqli natijalarga erishildi, ya'ni XX asr o'zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida frazemalarning uslubiy vazifalarini o'rganishga ham alohida ahamiyat berildi. Bu jihatdan Hamza Hakimzoda Niyoziy (B.Turdialiyev, Sh.Qozoqov), Abdulla Qodiriy (H.Qahhorova, F.Nasriddinov), Abdulla Qahhor (I.Qo'chqortoyev, O.Abdullayeva, R.Qo'chqortoyeva), Oybek (Q.Samadov, H.Nizomxonov), G'afur G'ulom (N.Shukurov, B.Choriyev), Komil Yashin (E.Abdiyev), Hamid Olimjon (S.Boboyeva), Zulfiya (S.Karimov), Maqsud Shayxzoda (B.Yoriyev), Asqad Muxtor (O'.Nosirov), Sharof Rashidov (R.Mirazizova), Shuhrat (M.To'ychiyev), Said Ahmad (B.Yo'ldoshev) kabi so'z san'atkorlarining asarlarida qo'llangan frazemalar tahliliga oid ishlar diqqatga sazovordir.

XX asrning 70-80-yillarida o'zbek tilshunoslari frazemalarning "Mushtum" jurnali sahifalarida (A.Abdunazarov), umuman, publitsistik uslubda (T.Qurbonov, A.Abdusaidov), so'zlashuv nutqida (B.O'rinboyev, M.Tursunpulatov, D.O'rinboyeva) qo'llanilishini o'rgandilar, frazemalarning ekspressivlikni ifodalashdagi roli (A.Abdullayev), folklor asarlarida, jumladan, "Alpomish" dostonida qo'llangan frazemalar (SH.Shoabdurahmonov, S.Tursunov), emotsional-baho frazemalarining semantik-uslubiy xususiyatlari (Abdug'afur Mamatov), frazeologik me'yor va undan chetga chiqishlarning tiplari (Abdimurod Mamatov) singari masalalarni o'rganishda ham yaxshi natijalarga erishildi, gazeta tilida frazemalarning qo'llanish xususiyatlari maxsus tadqiq etildi⁴, gazeta sarlavhalari funksiyasida frazemalarnting qo'llanish imkoniyatlari tahlil etildi⁵.

³ Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. - Toshkent: Fan, 1970. – B. 56.

⁴ Abdusaidov A. Gazeta tilida frazeologizmlar (gazeta tilini o'rganishga doir materiallar). - Samarqand, SamDU nashri, 1990. - 120 b.

⁵ Toshaliyev I. Sarlavha stilistikasi. - Toshkent, 1995; Abdusaidov A. Gazeta sarlavhasi (qo'llanma). - Samarqand, SamDU nashri, 1995. – B. 98-117.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

O. Azizov va A. Safayevlar bilan hamkorlikda yozilgan qo'llanmada esa frazemalar semantik jihatdan bunday tiplarga umuman ajratilmaydi, balki ular orasidagi sinonimiya, omonimiya, polisemiya, antonimiya hodisalari haqida ma'lumot beriladi⁶.

Ma'lumki, lug'at tuzish jarayonida lug'atshunoslar turli muammolarga duch keladilar. Buning asosiy sabablaridan biri – bu tillarda mavjud bo'lgan bir iboraning birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi, ya'ni *omonimlik* xususiyatidir. Buning uchun lug'atshunosdan har bir *omonim* iboraning turli xil ma'no farqlarini topib, tahlil qilgan holda misollar bilan yoritish talab qilinadi. O'zbek tilida so'zlar kabi iboralarning ham shakl va ma'no munosabatiga ko'ra *omonim*, *sinonim*, *antonim*, *paronim*, *polisemik* va *vazifadosh* turlari mavjud.

Bir xil so'zlardan tuzilgan, tamoman boshqa-boshqa ma'no bildirgan iboralar omonim iboralar (frazologik omonimiya) hisoblanadi. Frazologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi: *qo'l ko'tarmoq I* va *qo'l ko'tarmoq II* kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora orasida voqe bo'ladi, keltirilgan iboralar barcha muqobil shakllarda teng keladi: *qo'l ko'tardim* – *qo'l ko'taradi*. "*Darvoqe, bu orada u chapaklar bo'roni ostida tarixiy nutqini tugallab, navbatdagi so'z do'st orolliklar delegatsiyasining rahbariga berildi*"⁷. Ushbu misolda qo'llanilgan so'z *berdi* iborasi omonim ibora bo'lib, misolda *so'z berdi I* – gapirishga ijozat berdi ma'nosini anglatgan bo'lsa, *so'z berdi II* – va'da berdi ma'nosida ham qo'llanadi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora orasida voqe bo'ladi, keltirilgan iboralar esa barcha muqobil shakllarida teng keladi. Shunga ko'ra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin.

Omonimlik munosabatdagi iboralarning leksik tarkibi har xil bo'ladi va shu jihatdan omonimik munosabatdagi iboralarning leksik tarkibini ikki turga ajratish mumkin: 1. Har ikki ibora tarkibidagi bir komponent esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Masalan: *o'ng kelmoq I* va *o'ng kelmoq II* iboralari tarkibidagi fe'l komponentlari ayni bir so'z bilan, ism (ot) komponentlar esa omonim so'zlar bilan ifodalangan: birinchi ibora tarkibidagi *ters* sifatining antonimi, ikkinchi ibora tarkibida esa *tush* otining antonimi qatnashgan. Bu tipdagi iboralar juda kam.

2. Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so'zlarning o'zi bo'ladi. Bunda ikki holat bor: a) iboralar tarkibidagi so'zlar har xil leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Masalan: *dam bermoq I* va *dam bermoq II* iboralari tarkibida fe'l komponentlari ayni bir leksik ma'nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa-boshqa

⁶ Azizov O., Safayev A., Jamolxonov H. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi (fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis). - Toshkent: O'qituvchi, 1986. – B. 66-71.

⁷ Erkin A'zam. Chapaklar va chalpaklar mamlakati. Qissa, «Sharq», Toshkent, 2007, 15-bet.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

leksik ma'nosi bilan qatnashgan. (dam 1 –“havo”, “yel”; dam 2- “istirohat”). Bunday omonimiyani izohlashda so'z komponentlarga suyanib bo'lmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan: *ichag (i) uzildi I* va *ichag (i) uzildi II* iboralari tarkibidagi so'z komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi iborada *qattiq va uzluksiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek* bo'lishidan, ikkinchi iborada esa *uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish* darajasiga yetishidan obraz olingan. *ko'z yumdi*: 1-ma'nosi *vafot etdi*; “*Lekin chol hali baquvvat, iligi sog'. Bir kun ko'zini yumar axir*”. (Oybek) 2-ma'nosi *kechirdi*: *Nima uchun bu haqiqatdan ko'z yumasiz?* (Sharof Rashidov) *Boshini yemoq*: 1-ma'nosi *o'ldirmoq*; *Tug'ilishi bilan onasining boshini yegan bola endi mening boshimga yetmoqchi*. (R.Fayziy) 2-ma'nosi: *juda ko'p meva (hosil) bermoq*; *Tut o'lgur boshini yeb, tagi bilan bitta bo'lib yotibdi*. (Mirmuhsin) Xulosa qilganda, omonimlik - shaklan bir xil so'zlardan tuzilgan, tamoman boshqa-boshqa ma'no bildirish hodisasi bo'lib, bunday hodisa nafaqat so'zlarda, balki iboralarda ham uchraydi.

O'zbek tilidagi omonim iboralarni morfologik tarkibiga ko'ra bir necha turga bo'lish mumkin: 1) fe'l tarkibli iboralar: *barq urib I* (yashnamoq, jilovlanmoq), *barq urib II* (Gurkirab, g'oyat tez, yayrab-yashnab); *bosh ko'tardi I* (qaradi, qilib turgan ishini to'xtatdi, qo'zg'aldi, harakat qildi, kurashga chog'landi), *bosh ko'tardi II* (unib chiqdi), *boshini ko'tarmoq I* (qaramoq; qilib turgan ishini to'xtatmoq; qo'zg'almoq; kurashga chog'lanmoq), *boshini ko'tarmoq II* (tuzalmoq); *Boshini yeb I* (yo'q qilmoq, halok qilmoq), *boshini yeb II* (juda ko'p meva qilmoq); *Boshlarini qovushtirdi I* (boshlari bir joyga qovishdi), *boshlarini qovushtirdi II* (kelin-kuyov qildik, boshlarini biriktirdik); *boshiga ko'tardi I* (qattiq shovqin soldi), *boshiga ko'tardi II* (yuksak darajada izzat-hurmat qildi); *dam bermoq I* havo oqimini kuch bilan haydab kiritmoq, *dam bermoq II* (sayr qilishga imkon bermoq, hordiq chiqarmoq); *damini kesdi I* (gapirtirmadi), *damini kesdi II* (ta'sir kuchini qaytardi, yo'qotdi); *dunyodan o'tdi I* (yashab o'tdi), *dunyodan o'tdi II* (qazo qildi, o'ldi); *dong qotdi I* (kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo'lib qoldi), *dong qotdi II* (hech narsani sezmaslik darajasida qattiq uxladi) va boshqa, xullas, 50 dan ortiq iboralar mavjud.

2. Modal so'z tarkibli ibora: *joni bor I* (hali tirik), *joni bor II* (asosga ega, gapining zamirida haqiqat bor); *mazasi yo'q I* (sog'ligi yomon holatda), *mazasi yo'q II* (harakati, layoqati sust).

3. Sifat tarkibli ibora: *ko'zi ochiq I* (barhayot), *ko'zi ochiq II* (yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlashga qobiliyatli)

4. Ot tarkibli ibora: *turgan gap I* (aniq, shak-shubhasiz, kesim bo'ladi) *turgan*



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

gap II (aniq, shak-shubhasiz, kirish bo'lak).

Xulosa qilib aytganda o'zbek tilidagi omonim iboralarni to'plab, lingvokulturologik, etnolingvistik, lingvopoetik aspektda tahlil qilish, ularning o'zbek tili sohiblari uchun nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganish tilshunoslik uchun muhim masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кунин А.В. Английская фразеология. М., 1970, с. 128.
2. Yo'ldoshev B. "O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi va funksional-pragmatik xususiyatlari". Ma'ruzlar matni, - Samarqan, 2012-yil, -B. 4
3. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. - Toshkent: Fan, 1970. - B. 56.
4. Abdusaidov A. Gazeta tilida frazeologizmlar (gazeta tilini o'rganishga doir materiallar). - Samarqand, SamDU nashri, 1990. - 120 b.
5. Toshaliyev I. Sarlavha stilistikasi. - Toshkent, 1995; Abdusaidov A. Gazeta sarlavhasi (qo'llanma). - Samarqand, SamDU nashri, 1995. - B. 98-117.
6. Azizov O., Safayev A., Jamolxonov H. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi (fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis). - Toshkent: O'qituvchi, 1986. - B. 66-71.
7. Erkin A'zam. Chapaklar va chalpaklar mamlakati. «Sharq», Toshkent, 2007. - B.15